

XOR BO‘LIB KUYLASHDA VOKAL XOR MALAKALARINI SAMARALI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Raxmonberdiyeva Surayyo

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘quvchisi

raxmonberdiyevasurayyo@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada o‘sib kelayotgan yosh-avlodni estetik qarashlarini, ijodiy faolligini, istedod va qobiliyatlarini namoyish etish fazilati musiqiy ta’lim-tarbiya negizida ro‘yobga chiqishi va bu fazilatlarni qo‘shiq kuylash faoliyatida yanada rivojlanishi haqida, musiqiy tarbiya berishning negizi jamoa bo‘lib qo‘shiq kuylash faoliyati ekanligi haqida so‘z boradi. Shuningdek qo‘shiq kuylash jarayonida vokal-xor malakalari muhim ahamiyat kasb etishi, vokal-xor malakalari yordamida o‘quvchilar qo‘shiqni so‘z ma’nosi va musiqa ohangini chuqur idrok etadilar va asarni mazmuni orqali hayotni o‘rganadilar. Vokal-xor ishlari bolalarni musiqiy uquvini ijodiy rivojlantirishda ham ayniqsa ahamiyatga ega ekanligi yoritilgan. Vokal-xor ishlarini amalga oshirishda o‘qituvchi ovoz sozlash, qo‘shiq o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarning ovoz diapazonini aniq bilishi lozimligi, bu esa tanlangan asarni o‘quvchilar ijrosida yanada sof ijro etishga erishishligi muhimligi, o‘quvchilarda eshitish qobiliyati va ovoz imkoniyatlarini shakllantirishda samarali usullardan foydalanish yaxshi natija bershligi va bu usullarni qo‘shiq kuylash faoliyatida, xor bo‘lib kuylash jarayonida foydalanish haqida atroflicha tushuncha berib o‘tilgan va bu usulardan musiqa darslarda foydalanish tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: *Vokal-xor malakalari, musiqiy tafakkur, his-tuygular, musiqiy ta’lim, ijodiy-ijrochilik, ovoz diapazoni, tonallik, intonatsiya, akkord, nafas muskullari*

ABSTRACT

In the article, the quality of showing the aesthetic views, creative activity, talents and characteristics of the young generation is realized on the basis of musical education and about the further development of these characteristics in the process of singing, the basis of musical education is the community. to be lib refers to the activity of singing. vocal-choral skills become important in the process of backing singing, with the help of vocal-choral skills, students deeply understand the meaning of words and music and learn life through the content of the work. Vocal-choir works are very quickly acquired in the creative development of children’s musical learning. In the

implementation of vocal-choir work, the teacher must know the vocal range of the students in the process of voicing, singing, which is the importance of more pure performance in the performance of the students, participation in the students and voicing. the use of effective methods of support has given good results and these methods have been given in detail about movement in the process of singing and humming, and this method has been recommended in music lessons.

Key words: *Vocal and choral skills, musical thinking, emotions, musical education, creative performance, voice range, tonality, intonation, chord, breathing muscles.*

KIRISH

Musiqqa ta'limiy va tarbiyaviy jarayonida musiqiy tafakkur, bilish jarayoni musiqiy idrok, tasavvur, tushunchalar rivojlanadi. Inson musiqqa tinglashi, qo'shiq kuylashi orqali o'z ichki his-tuyg'ularini voqelik hodisalarini ongli his etadi. O'sib kelayotgan yosh-avlodning xususan, maktab o'quvchilarining musiqqa madaniyati, estetik qarashlarini, ijodiy faolligini, istedod va qobiliyatlarini namoyish etish fazilati musiqiy ta'lim-tarbiya negizida ro'yobga chiqadi. Bu fazilatlar ayniqsa, qo'shiq kuylash faoliyatida yorqin ko'rina oladi.

O'quvchilarga musiqiy tarbiya berishning negizi jamoa bo'lib qo'shiq aytishdir, chunki musiqaga bo'lgan qobiliyatni o'stirish, musiqqa san'atiga bo'lgan mehr va qiziqishni oshira borish vazifasi o'quvchilarning o'z faoliyati jarayonida muvaffaqiyatli bajariladi. Qo'shiq kuylash har bir bolaning o'ziga jalb qiluvchi samarali natija beruvchi jarayonidir. Qo'shiq kuylash jarayonida vokal-xor malakalari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunda o'quvchilarning diqqat-e'tibori, ongliligi va faolligi oshadi, musiqiy xotirasi yaxshi rivojlanadi va o'rgangan qo'shiqlarini ijro etganda, zavqlanish hissi paydo boiadi. Vokal-xor malakalari yordamida o'quvchilar, qo'shiqni so'z ma'nosi va musiqqa ohangini chuqur idrok etadilar va asarni mazmuni orqali hayotni o'rganadilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Musiqqa darslaridagi qo'shiq kuylash faoliyatida o'quvchilarni yalpi qamrab oladi. Xor bo'lib kuylash murakkab psixologik-fiziologik jarayon hisoblanadi. Musiqqa ta'limida xor bo'lib qo'shiq kuylash o'quvchilarda vokal kuylash malakalari ovoz hosil qilish, ansambl, soz, nafas, talaffuz kabi eng muhim amaliy ijrochilik sifatlarini shakllantirishda juda muhim vosita hisoblanadi.

Qo'shiq kuyklash jarayonida o'qituvchining musiqqa asari, mualliflari, g'oyaviy badiiy mazmuni haqidagi suhbatlari, vokal-xor mashqlari va turli mavzu va janrdagi

asarlarni kuylashlari orqali o'quvchilarni diqqat e'tibori, ongliligi, faolligi rivojlana boradi. Qo'shiq kuylaganda ijodiy-ijrochilik hamkorligi kuchayadi va do'stona yaxlit jamoaga birlashadi.

Xor mashg'ulotlarida o'quvchilarning diqqat e'tibori, ongliligi oshadi va fgaollashadi, musiqiy xotirasi yaxshi rivojlandi. O'quvchilarda asar ijrosida zavqlanish hissi paydo bo'ldi. Shuning bilan birga qo'shiq kuylaganda ijodiy ijrochilik hamkorlik kuchaydi va o'quvchilar do'stona jamoaga birlashishdi. Eng muhimi vokal –xor malakalarini shakllantirib borishda o'quvchilar qo'shiqni so'z ma'nosi va musiqa ohangini chuqur idrok etadilar va asar mazmuni orqali hayotni tassavvur etadilar.

Shuningdek vokal-xor ishlari bolalarni musiqiy uquvini ijodiy rivojlantirishda ham ayniqsa ahamiyati katta. Bunda o'quvchilarni kuylashga qiziqitira olish ko'p jihatdan o'rganadigan xar bir mashq yoki qo'shiq oquvchi tomonidan chiroyli qilib kuylab berishga bog'liq. Chunki yosh bolalar bilan olib boriladigan vokal-xor ishi ko'pincha o'qituvchi ovozigacha taqlid qilib kuylashga asoslanadi. Shuning uchun o'qituvchi yoqimli ovozi ustida muntazam ish olib borishi kerak. Vokal-xor ishlarini amalga oshirishda o'qituvchi ovoz sozlash, qo'shiq o'rgatish jarayonida oquvchilarning ovoz diapazoni, ishchi diapazoni, primar tovushlarida kuylash uchun qulay bolgan tovushlarini aniq bilishi lozim.

Vokal-xor malakalarini samarali shakllantirish yo'llari orqali o'quvchilar qo'shiq soz ma'nosini yaxshi tushundilar shuning bilan birga qo'shiq ohangini idrok etadilar. Vokal-xor malakalarini samarali shakllantirishda darsning xususiyatlaridan biri bo'lgan qo'shiq faoliyatida asar mazmuni haqida so'zlaganimizda o'quvchilarni bilimi yanada kengayadi. O'quvchilar bilan qo'shiq haqida suhbatlashganda Vatanga bo'lgan muhabbatlari yanada oshadi, qo'shiq ijro etishga esa qiziqishlari yanada kuchayadi,

NATIJARLAR

O'quvchilarning musiqiy badiiy extiyoji kuchayadi. Shuning bilan birga ularning kayfiyati kotariladi. O'quvchilar sitqidildan qo'shiqni taxlil qiladilar va ijro etdilar.

Har bir o'qituvchi bolalarni vokal ko'nikmalarga o'rgatayotganda, albatta yaxshi natija beruvchi samarali yo'llardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Vokal-xor malakalari ustida ish olib borishda eshitish qobiliyati va ovoz imkoniyatlarini shakllantirishda quyidagi usullardan foydalanish samarali natija beradi:

- Chalingan tovush yoki tovushlarni diqqat bilan eshitish va o'qituvchi yordamida kuylash;
- Ijroning bir qancha variantlarini tinglash va eng yaxshisini tanlab olish;
- Bolalar e'tiborini jalb etish va ritm hissini uyg'otish uchun musiqa cholg'ularidan foydalanish;

- Ovozni baland yoki pastligini o'qituvchini qo'l harakati orqali tushunish;
- Kuyning harakatini sxema, grafika, qo'l harakatlari yoki nota yozuvlari orqali tushuntirish;
- Kuylashdan avval, kuylanayotgan asarning tonalligiga ovozni sozlash;
- Notalar bilan solfedjio qilib kuylatish;
- Intonatsiya jihatdan qiyin bo'laklar yoki parchalarni mashq qilib turli tonalliklarda kuylash;
- O'rganilayotgan asar bolalarni ovoziga mos kelmasa, tonallikni ularni kuylashlariga qulay tonga almashtirish mumkin.
- Akkordni ovozlarga bo'lib, uni to'g'ri kuylanishi va toza eshitilishiga ahamiyat berish;
- Birinchi tovushni kuylashdan oldin, hayolda tasavvur etish;
- Nafasni to'g'ri boshqarishni o'rganish;
- Asar matnini faol "pichirlash" bilan talaffuz etish, nafas muskullarini faollashtirish va tovushni nafasga tayantirishga yordam beradi;

XULOSA

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, qo'shiq kuylash faoliyatida vocal-xor malakalari bolalarning umumiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Shuningdek vokal-xor malakalarini rivojlantirish orqali o'quvchilarda did, nafasat, ohanglarda inson hissiyotlarini rang-barang qirralarini his etishda vokal-xor malakalarini samarali shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. G.Sharipova. Musiqa o‘qitish metodikasi. “Musiqa” nashriyoti,- T., 2014y
2. Raxmonberdiyeva, S. M. (2021). MUSIQA DARSLARIDA BOLALARNING MUSIQIY IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARADORLIGI. *Интернаука*, (19-6), 15-16.
3. Raxmonberdiyeva, S. M. (2020). OQUVCHILAR ESTETIK DIDINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQA TINGLASH FAOLIYATINING TUTGAN ORNI. *Интернаука*, (1-3), 67-69.
4. Shukurova, N. G. (2021). COMPUTER TECHNOLOGY IN MODERN MUSIC EDUCATION. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 1086-1089.
5. Shukurova, N. Pedagogical and Psychological Fundamentals of Teacher Professional Competence. *JournalNX*, 679-681.
6. Raxmonberdiyeva, S. (2022). MTT DA BOLALARNI MAQOM ASARLARI TINGLATISHGA O‘RGATISH VA UNI IDROK QILISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH.
7. Shukurova, N. (2023). MUSIQIY-RITMIK MASHQLARNING BOLALARNI UMUMIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(1), 57-60.
8. O.Fayziyev va boshqalar. O‘zbekiston maktablarida musiqiy nafosat tarbiyasini tashkil etish. Metodik qo‘llanma.-T.: Sharq, 1999y.